



OILALARNING MOLIYAVIY QIYINCHILIKLARINI KAMAYTIRISH VA FARZANDLARNING TA'LIMINI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN JAMG'ARMA FONDI

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Menejment fakuliteti, 3-kurs MNP-76 guruh talabasi

Sultonaliyev Dilyorbek

@dilyorbeksultonaliyevs27gmail.com

*Ilmiy rahbar: **Ganijon Gayratovich Ibragimov***

Annotatsiya:

O'zbekistonda ko'plab oilalarda real oila hajmi rasmiy statistikadan katta bo'lgani uchun daromad iste'molni to'liq qoplaydi va jamg'arma qilish imkoniyati kamayadi. Shuning uchun bolalar uchun kichik badallarni yig'ib, ularni xavfsiz investitsiyalarga yo'naltiradigan va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha maslahat beradigan yagona institut tashkil etilishi oilalar uchun muhim yechim bo'lishi mumkin.

Аннотация:

Во многих семьях Узбекистана реальный размер домохозяйства выше официальных данных, из-за чего доходы едва покрывают расходы, и сбережения почти не формируются. Создание единого фонда, который собирает небольшие взносы, инвестирует их безопасно и консультирует по образованию, может значительно облегчить положение семей.

Abstract:

In many Uzbek households, actual family size exceeds official averages, leaving little room for savings after basic expenses. A unified fund that collects small contributions, invests them safely, and guides families on education options could provide a practical solution.



Kalit so'zlar: Oila daromadi, iste'mol xarajatlari, jamg'arma mexanizmi, farzand ta'limi, moliyaviy rejalashtirish, hududiy tafovutlar, ta'lim institutlari, investitsiya xavfsizligi

Kirish

O'zbekistonda hududlar bo'yicha oila daromadlari, iste'mol xarajatlari va oila tarkibi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ko'plab hududlarda real oila hajmi rasmiy o'rtachadan kattaroq bo'lgani uchun iste'mol xarajatlari amalda yuqoriroq bo'lib, oilalarning jamg'arma qilish imkoniyatini keskin cheklaydi. Bu holat farzandlar ta'limi, kasbga yo'naltirish va uzoq muddatli rejalashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Shu sababli daromad–xarajat tafovutini aniq baholash, real oila hajmini hisobga olish va oilalarga barqaror jamg'arma mexanizmini taklif etuvchi yangi yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarbdir. Xususan, kichik badallarni yig'ib, ularni inflyatsiyadan himoyalangan shaklda boshqaradigan va ta'lim bozoriga oid maslahatlar beradigan yagona institutni shakllantirish oilalar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashi hamda ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Oliy ta'lim shaxs va jamiyat uchun foydali bo'lsa-da, uning xarajatlari ko'plab oilalarda moliyaviy to'sqinlik yaratadi. Shu sababli ota-onalar farzandlarining ta'limi uchun oldindan tejashga murojaat qiladi[1]. Tejashga daromad, ijtimoiy muhit va institutlarning roli ijobiy ta'sir qiladi, shuning uchun moliyaviy rejalashtirishni qo'llab-quvvatlash muhimdir[2].



Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekistonda ta'lim xizmatlariga 30,4 trln so'm sarflangan[3]. Shu bilan birga, xorijiy va nodavlat OTMlar uchun ajratilgan grant kvotalari cheklangan[4]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar farzandlarning kelajak daromadiga bo'lgan kutishlarini hisobga olib jamg'armalarini shakllantiradi[5]. Shu sababli, yoshlar ta'limini oldindan moliyalashtirishga qaratilgan institut yoki jamg'arma modeli O'zbekistonda dolzarb yechim bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi oilalarning daromad, iste'mol va tejash odatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari va nodavlat OTMlar bo'yicha grant ma'lumotlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, xalqaro va milliy tadqiqotlar (Fidelity, HrMars, arXiv) asosida adabiyotlar sharhi amalga oshirildi. Oilalarning resurs taqsimoti va farzandlar ta'limi uchun jamg'arma yaratish imkoniyatlari model yondashuvi orqali baholandi. Ushbu metodlar oilalarning moliyaviy xatti-harakatlari va tejash odatlarini aniqlash hamda yoshlar ta'limini oldindan moliyalashtirishga qaratilgan institut yoki jamg'arma modelining samaradorligini baholash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

2025-yil holatiga O'zbekiston hududlarida oilalar, aholi va daromadlar bo'yicha ma'lumotlar Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan. Hududlar kesimida aholi jon boshiga daromad eng yuqori Toshkent shahrida (52 mln so'm), undan keyin Navoiy (32,1 mln), Buxoro (26 mln) va Xorazm (22,8 mln) keladi[6]. Doimiy aholi soni bo'yicha Samarqand viloyati 4 335,7 ming kishi bilan yetakchi, Farg'ona 4 181 ming, Qashqadaryo 3 673,7 ming kishi bilan davom etadi[7]. Oilalar soni bo'yicha Farg'ona viloyati 1 177 396 ta, Samarqand 1 082 846 ta, Toshkent shahri 1 011 537 ta oilaga ega[8]. Bu ma'lumotlar hududlar bo'yicha moliyaviy imkoniyatlar va barqarorlikni tahlil qilishga asos bo'ladi.



	Hudud	Aholi jon boshiga daromad (mln so'm) ¹	Doimiy aholi soni (ming kishi) ²	Oilalar soni ³
1	Toshkent shahri	52	3 145,2	1 011 537
2	Navoiy viloyati	32,1	1 103,3	307 744
3	Buxoro viloyati	26	2 089,4	615 418
4	Xorazm viloyati	22,8	2 045,7	580 823
5	Toshkent viloyati	21,9	3 134,1	913 510
6	Andijon viloyati	19,4	3 487,9	946 450
7	Farg'ona viloyati	18,5	4 181	1 177 396
8	Samarqand viloyati	18,1	4 335,7	1 082 846
9	Sirdaryo viloyati	17,2	938,5	251 415
10	Jizzax viloyati	17,1	1 551,7	370 967
11	Qashqadaryo viloyati	17	3 673,7	911 917
12	Surxondaryo viloyati	16,5	2 974,4	740 005
13	Namangan viloyati	15,8	3 158,4	834 796
14	Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,8	2 040,7	499 417

Hududlar bo'yicha oilalarning moliyaviy imkoniyatini baholash uchun quyidagi formulalar ishlatiladi:

1. **Oila a'zolari o'rtacha** = Hudud aholi soni ÷ Hududdagi oilalar soni
2. **Oila yillik daromadi** = Aholi jon boshiga daromad × Oila a'zolari o'rtacha



3. **Orttirilgan mablag'** = Oila yillik daromadi – (Oila a'zolari o'rtacha $\times$ 1 kishilik yillik iste'mol xarajati)

4. **1 ta farzandga ajratish** = Orttirilgan mablag' $\div$ O'rtacha farzandlar soni

Iste'mol savatchasi — oilaning asosiy zaruriy xarajatlarini qamrab oladigan ko'rsatkich. Masalan, bir kishi uchun oylik iste'mol xarajati 669 ming so'm bo'lsa, yillik iste'mol xarajati: $669\,000 \times 12 = 8\,028\,000$ so'm deb olinadi[9].

Ushbu yondashuv hududlar kesimida oilalarning daromadi, iste'mol xarajatlaridan keyin qoladigan mablag'i va farzand ta'limiga ajratiladigan summa tahlilini osonlashtiradi.

	Viloyat	Oila a'zolari o'rtacha (i)	Oila daromadi (mln)	Orttirilgan mablag'(mln)	1 farzandga sh (o'rtacha nd = 2) so'm)	1 farzandga sh (real nd = oila a'zolari – 2) (mln)
1	Toshkent shahri	3,11	161,7	137,1	68,85	123,5
2	Navoiy viloyati	3,59	115,2	92,4	46,2	58,1
3	Buxoro viloyati	3,39	88,1	62,8	31,4	52,7
4	Xorazm viloyati	3,52	80,3	56,8	28,4	37,4
5	Toshkent viloyati	3,43	75,0	50,5	25,25	45,9
6	Andijon viloyati	3,68	71,3	43,9	21,95	23,8
7	Farg'ona viloyati	3,55	65,7	42,0	21,0	30,4
8	Samarqand ati	4,00	72,4	40,3	20,15	20,15
9	Sirdaryo viloyati	3,73	64,0	39,1	19,55	22,6
10	Jizzax viloyati	4,18	71,5	38,1	19,05	18,1



11	Qashqadaryo ati	4,03	68,5	36,3	18,15	18,0
12	Surxondaryo ati	4,02	66,3	34,0	17,0	17,0
13	Namangan ati	3,78	59,7	35,2	17,6	21,4
14	Qoraqalpog'iston	4,09	60,6	28,9	14,45	14,1

Hududlar kesimida oilaviy daromad va ta'lim mablag'i

Jadval hududlar bo'yicha oilalarning o'rtacha yillik daromadi, iste'mol xarajatlaridan keyin orttirib qoladigan mablag'i va farzand ta'limiga ajratilishi mumkin bo'lgan resurslarni ko'rsatadi. Toshkent shahrida bitta farzandga ajratiladigan mablag' $\approx 123,5$ mln so'm bo'lsa, Qoraqalpog'istonda bu faqat 14,1 mln so'mni tashkil qiladi. Bu hududiy iqtisodiy tafovutlar, ish bilan bandlik va moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq.

O'zbekistonda, masalan, Toshkentdagi ba'zi universitetlarda oliy ta'lim kontrakti yillik 15–25 mln so'm atrofida[10], chet elda esa AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyada kontraktlar 20 000–50 000 dollar bo'lishi mumkin[11]. Shu sababli past daromadli hududlarda oilalar uchun farzand ta'limiga mablag' ajratish katta qiyinchilik tug'diradi.

Hozirgi tizimda bank omonatlari, stipendiya va grantlar mavjud bo'lsa-da, ular oilalarning uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishini to'liq qamrab olmaydi. Shu nuqtai nazardan, oilalarning yillik kichik badallarini jamg'arib, xavfsiz investitsiya vositalari orqali ko'paytirish va farzandning ta'limini yoshligidan kuzatib boradigan yangi institut zarur. Bu model oilalarga barqarorlik, ta'limga uzluksizlik va mamlakat darajasida inson kapitalini oshirish imkonini beradi.



Xulosa va takliflar

Tahlil natijalari O'zbekistonda hududlar kesimida oilalarning daromadi va farzand ta'limiga ajratish imkoniyatlari o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat bolalarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarida tabaqalanishni kuchaytirib, ta'limdagi teng imkoniyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Amaldagi bank omonatlari, grant va stipendiyalar muammoni qisman yumshatsa-da, ta'lim xarajatlarini oldindan va tizimli moliyalashtirishni ta'minlay olmaydi.

Shu sababli farzand ta'limiga yo'naltirilgan maxsus institutni shakllantirish zarur. Mazkur institut ota-onalarning muntazam badallarini jamg'arib, ularni past riskli va shaffof investitsiya vositalarida boshqarishi, inflyatsiyadan himoyalashi hamda banklar, ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va davlat organlari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi lozim.

Bunday tizim ota-onalar uchun qulay va aniq moliyaviy rejalashtirish imkonini yaratadi.



Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan institut hududiy tafovutlarni yumshatish, bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini tenglashtirish va ta'lim hamda



mehnat bozori oʻrtasidagi bogʻliqlikni kuchaytirish orqali inson kapitalining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. HrMars.[26 June 2020] *Factors that Affecting Parents' Saving for Children's Tertiary Education*
2. Fidelity®.[1.08.2024] *Saving for College Tops Parents' Priority List, Yet Families Face a Savings Shortfall Amid Inflation and Rising Cost of College*
3. Stat.uz.[27.11.2025][Oʻzbekistonliklar taʼlim xizmatlari uchun 10 oyda 30 trln soʻmdan ziyod mablagʻ sarflagan](#)
4. Kun.uz.[29.07.2024] [Xorijiy va nodavlat oliygohlar uchun ajratilgan grant kvotalari eʼlon qilindi](#)
5. arXiv.org.[27.11.2024]*Household Resource Allocation Dynamics and Policies*, arXiv:2411.18144 <https://arxiv.org/abs/2411.18144>
6. Milliy statistika qoʻmitasi (2025, yanvar–sentabr). *Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar*. [Stat.uz](#)
7. Milliy statistika qoʻmitasi (2025, 1-iyul). *Hududlar kesimida doimiy aholi soni*. [Stat.uz](#)
8. Milliy statistika qoʻmitasi (2025, 1-yanvar). *Hududlar kesimida oilalar soni*. [Stat.uz](#)
9. Milliy statistika qoʻmitasi[04/02/2025] *On the cost of minimum consumer spending*. [Stat.uz](#)
10. Kun.uz. <https://kun.uz/news/2024/07/29/oliy-talim-muassasalarida-2024-2025-oquv-yili-uchun-kontrakt-miqdorlari-tasdiqlandi>
11. Education Data Initiative.[2025-01-21] <https://educationdata.org/average-cost-of-college-by-country>